

**TIQXMMI MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
FUNDAMENTAL VA AMALIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/31.03.2022.T/FM.10.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

TADJIBAEV IKRAM URALBAEVICH

**SHARSIMON TO‘DALAR VA ULAR SISTEMALARI UCHUN EMPIRIK
BOG‘LANISHLARNI VA SINFLASHTIRISHNI TOPISH MUAMMOLARI**

01. 03. 01 – astronomiya

**Fizika-matematika fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Fizika-matematika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Content of the dissertation abstract of the doctor (DSc) on physical and mathematical sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc) по физико-математическим наукам

Tadjibaev Ikram Uralbaevich

Sharsimon to‘dalar va ular sistemalari uchun empirik bog‘lanishlarni va sinflashtirishni topish muammolari **3**

Таджибаев Икрам Уралбаевич

Проблемы поиска эмпирических зависимостей и классификации для шаровых скоплений и их систем **25**

Tadjibaev Ikram Uralbaevich

Problems of finding empirical dependencies and classification for globular clusters and their systems **49**

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works **53**

**“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
FUNDAMENTAL VA AMALIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/31.03.2022.T/FM.10.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

TADJIBAEV IKRAM URALBAEVICH

**SHARSIMON TO‘DALAR VA ULAR SISTEMALARI UCHUN EMPIRIK
BOG‘LANISHLARNI VA SINFLASHTIRISHNI TOPISH MUAMMOLARI**

01.03.01 – astronomya

**Fizika-matematika fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2023

Fizika-matematika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.DSc/FM67 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy Kengashning veb-sahifasida (www.ifar.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: Nuritdinov Salaxitdin Nasritdinovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Rayimbayev Djavlonbek Radjabbayevich
fizika-matematika fanlari doktori

Axunov Talat Axmatovich
fizika-matematika fanlari doktori

Minglibaev Muxtar Djumabekovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Etakchi tashkilot: Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi TIQXMMI Milliy tadqiqotlar universiteti huzuridagi Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/31.03.2022.T/FM.10.04 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil "22" "07" soat 14⁰⁰ daqiqa majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100000, Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy, Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti, 108-katta majlislar zali. Tel. +99871) 237-09-61, info@ifar.uz).

Dissertatsiya bilan TIQXMMI Milliy tadqiqotlar universiteti huzuridagi Fundamental va amaliy tadqiqotlar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (9 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100000, Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy, Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti, 108-katta majlislar zali. Tel. +99871) 237-09-61).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "8" "07" kuni tarqatildi.
(2023 yil "8" "07" daqiqa 9 raqamli restr bayonnomasi)



A.A. Abdujabborov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash raisi o'rinbosari, fizika-matematika fanlari doktori

E.X. Karimboev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash kotibi, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

A.B. Abdikamalov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi o'rinbosari, fizika-matematika fanlari doktori

KIRISH

(doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliligi va zarurati. Sharsimon to‘dalar va ular sistemalarini tadqiq qilish nafaqat astrofizika, balki zamonaviy kuzatuv kosmologiyasining muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Ta’kidlash joizki, sharsimon to‘dalar Koinotning noyob ob’ektlaridan biri hisoblanadi. Sharsimon to‘dalar sistemalari asosan, nisbatan qari sharsimon to‘dalar (ularning yoshi 10-12 mlrd. yilga teng) dan tashkil topgan bo‘lib, ular galaktikaning sferik tashkil etuvchisi yoki asosiy jismi atrofida joylashgan. sharsimon to‘dalar va ular sistemalari fizikasida mavjud bir qator muammolarini yechish uchun dastlab, alohida maqolalar tahlili hamda ulardagi kuzatuv ma’lumotlarni to‘plash yo‘li orqali ushbu ob’ektlarning kuzatuv ma’lumotlari bankini yaratish lozim. Sharsimon to‘dalar va ular sistemalari fizik xususiyatlarini o‘rganish to‘g‘ridan-to‘g‘ri ular galaktikalarining xarakteristikalarini o‘rganish bilan chambarchas bog‘liqdir. Ta’kidlash lozimki, shu kungacha sharsimon to‘dalar sistemalari va ular galaktikalari xarakteristikalari orasida fizik bog‘lanishlar umuman topilmagan. Shuningdek, sharsimon to‘dalar sistemasi hamda spiral, noto‘g‘ri va karlik galaktikalar xarakteristikalari orasida fizik bog‘lanishlar aniqlanmagan, sharsimon to‘dalar va ular sistemalari uchun sinflarga ajratish ishlab chiqilmagan. Deyarli 95 yildan beri davom etib kelayotgan sharsimon to‘dalarni sinflarga ajratish muammosi hal etilmagan. Bunday masalalarni yechish, xususan, sharsimon to‘dalar evolyutsiyasi va fizikasini tushunish, ularning kosmogonik nazariyalarini ishlab chiqish va galaktikalar kosmologik paydo bo‘lishining ikkita alternativ ssenariylari muammolarini solishtirishni taqozo etadi. Shulardan kelib chiqib, galaktikalardagi sharsimon to‘dalar va ular sistemalari fizik xususiyatlarini o‘rganish ular galaktikalari hamda galaktikalar to‘dalari va o‘tato‘dalarining kelib chiqishi muammolarini tushunishda “kalit” vazifasini bajarishi mazkur dissertatsiyaning dolzarbligini belgilaydi.

Bizning Respublikamizda ham Koinotning juda ko‘plab noyob ob’ektlari, jumladan, sharsimon to‘dalar va ular sistemalarining tadqiqoti bo‘yicha kuzatuv aspektlarini o‘rganishga katta e’tibor beriladi. Bu esa 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga¹ bog‘liq bo‘lgan fundamental tadqiqotlar yo‘nalishi yurtimizda fanning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etishini bildiradi. Oxirgi 20 yil davomida O‘zbekiston Milliy universitetida sharsimon to‘dalar sistemalari bo‘yicha turli bazalar yordamida juda katta hajmdagi noyob kuzatuv ma’lumotlari yig‘ib borilgan. Endi esa shu kuzatuv ma’lumotlarini tahlil qilish orqali qator savollarga javob berish vaqti keldi, shu kungacha keng miqyosdagi kuzatuv ma’lumotlari taxlil qilinmagan, ular asosiy fizik parametrlari orasida ishonchli darajadagi empirik bog‘lanishlar aniqlanmagan, sharsimon to‘dalar va ular sistemasi klassifikatsiyasi ishlab

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida "gi Farmoni

chiqilmagan, bu ob'ektlarning kinematik va dinamik parametrlarini aniqlash bo'yicha ishlar olib borilmagan va boshqalar.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrda " Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmonida, 2018 yil 12 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida kosmik tadqiqotlar va texnologiyalarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi F-5209-sonli Farmoyishi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019 yil 29 oktyabrda qabul qilingan "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-576-sonli qonuni hamda ushbu sohadagi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlantirish – II. "Energetika, energiya va resurs tejamkorligi" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Sharsimon to'dalar va ular sistemalarining fizikasidagi muammolar Yerdagi hamda kosmik teleskoplarda olingan kuzatuvlar natijalari asosida dunyoning yetakchi observatoriyalarida, ilmiy markazlarida, oliy ta'lim muassasalarida o'rganilgan. Masalan, McMaster University (Kanada), University of Michigan (AQSh), University of California (AQSh), Colorado State University (AQSh), University of Arizona (AQSh), University of Alabama (AQSh), Institute for Astronomy, University of Hawaii (AQSh), Herzberg Astronomy & Astrophysics Research Centre (Kanada), Max-Planck-Institut für Astronomie (Germaniya), European Southern Observatory (Germaniya), Universidad de Concepción (Chili), Instituto de Astrofísica (Chili), Gemini Observatory South (Chili), Department of Astronomy (Xitoy), Kavli Institute of Astronomy and Astrophysics (Xitoy), Centre of Astrophysics & Super computing (Avstraliya), INAF Osservatorio Astr. Di Teramo, via Maggini (Italiya), Observatoire de Strasbourg (Fransiya), Princeton University Observatory (AQSh), University of Munchen (Germaniya), University of Tokyo (Yaponiya), Yonsei University (Koreya), Moskva davlat universiteti qoshidagi Shternberg nomidagi davlat astronomiya instituti, Sankt-Peterburg universiteti qoshidagi Sobolev nomidagi astronomiya instituti (Rossiya), Kiev milliy universiteti (Ukraina), Lvov milliy universiteti (Ukraina), Ural federal universiteti (Rossiya), O'zbekiston Milliy universiteti va Chirchiq davlat pedagogika universiteti (O'zbekiston) kabi dunyoning yetakchi ta'lim muassasalarida, observatoriyalarida va ilmiy markazlarida tadqiqotlar olib boriladi.

Sharsimon to'dalar va ular sistemalari tadqiqoti bo'yicha dunyo miqyosida bir qator dolzarb muammolar o'rganilgan va ko'plab orginal ilmiy natijalar olingan. Masalan, turli morfologik tipdagi galaktikalar atrofidagi sharsimon to'dalar alohida kuzatuvlari olib borilgan (McMaster University, Kanada; University of Michigan, AQSh; University of Arizona, AQSh; European Southern Observatory, Germaniya; Gemini Observatory South, Chili; Observatoire de

Strasbourg, Fransiya; Sankt-Peterburg davlat universiteti, Rossiya; Moskva davlat universiteti qoshidagi Shternberg nomidagi davlat astronomiya instituti, Rossiya; Rossiya Fanlar akademiyasi Bosh astronomik observatoriya, Rossiya; Rossiya Fanlar akademiyasi Maxsus astrofizik observatoriya, Rossiya), turli filtrlardagi fotometrik xarakteristikalari olingan va fotometrik tahlillar bajarilgan (Max-Planck-Institut für Astronomie, Germaniya; Institutode Astrofisica, Chili; INAF Osservatorio Astr. di Teramo, Italiya; University of Tokyo, Yaponiya), sistemadagi to‘dalar soni aniqlangan (Herzberg Astronomy & Astrophysics Research Centre, Kanada; Universidadde Concepción, Chili; Gemini Observatory South, Germaniya; Centre for Astrophysics & Super computing, Avstraliya), solishtirma chastotasi bo‘yicha sharsimon to‘dalar sistemalarining alohida ro‘yxati tuzilgan va ushbu ob‘ektlarning paydo bo‘lish ssenariylari o‘rganilgan (McMaster University, Kanada).

Dunyoda hozirgi paytda sharsimon to‘dalar va ular sistemalarining kuzatuv tadqiqotlari bo‘yicha qator ustuvor yo‘nalishlarda izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, sharsimon to‘dalar sistemalarini kuzatish va yangi sharsimon to‘dalar hamda ular sistemalari nomzodlarini topish; ularning fotometrik tahlillarini bajarish; ko‘pmodalli rang diagrammasi va ular kelib chiqish tahlilari; sistemadagi to‘dalar massasini aniqlash; galaktikalar paydo bo‘lish modellarini tekshirish; ona galaktikalari massalarini aniqlash (Michigan universiteti, Arizona universiteti, Janubiy Yevropa observatoriyasi, Chili astrofizika instituti).

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hozirgi kunda Galaktikamizda yangi sharsimon to‘dalarni topish, sharsimon to‘dalar va ular sistemasini kuzatish, fotometrik tadqiqotlari, sharsimon to‘dalar sistemasini fizikasi va alohida xususiyatlarini tadqiq qilish, bu sistemalarni modellashtirish, sistemadagi sharsimon to‘dalar sonini aniqlash bilan dunyoning ko‘pgina yetakchi olimlari shug‘ullanib keladilar. Masalan, amerikalik (A.Kundu, J.Brodie, J.Strader, K.A.Woodley), koreyalik (J.Cho, H.S.Kim, S.J.Yoon, S.S.Kim, HoJin), kanadalik (W.Harris, J.P.Blakeslee), xitoylik (E.W.Peng, C.Liu), rossiyalik (A.S.Rastorguev, N.N.Samus, V.Surdin, A.Mironov, V.A.Marsakov, T.Borkova va b.), chililik (T.Richtler, M.Gomes, T.H.Puzia, A.Jordan), ispaniyalik (M.A.Beasley, A.J.Cenarro, J.A.L.Aguerri), avstraliyalik (Ch.Blom, D.A.Forbes), germaniyalik (B.Dirsch, M.Hilker) va boshqa olimlar. Ammo, sharsimon to‘dalar sistemalari uchun barcha kuzatuv ma’lumotlari yig‘ilmagan va ularning kuzatuv ma’lumotlari yetarlicha statistik tahlil qilinmagan.

Sharsimon to‘dalarning umumiy soni va galaktikaning dinamik massasi orasidagi korrelyatsiya o‘rganilgan, lekin faqat ularning massasi va effektiv radiusi orasidagi bog‘lanish aniqlangan (W.E.Harris). Shunga qaramay, bu yerda sharsimon to‘dalar sistemalari va u joylashgan galaktikaning dinamik massalari baholangan hamda shu asosida sharsimon to‘dalarning paydo bo‘lish effektivligi galaktika galosining massasiga proporsional ekanligi xulosa qilingan. Erta tipdagi galaktikalar atrofidagi sharsimon to‘dalar sistemalari dinamik xususiyatlari o‘rganilgan (M.A.Beasley, K.L.Rhode, S.E.Zepf, A.Kundu). Sharsimon to‘dalar va ular galaktikalarining paydo bo‘lish modellari muhokama qilingan (K.Ashman,

S.Zepf, J.P.Brodie, J.Strader, A.Pipino, T.H.Puzia, F.Matteucc). sharsimon to‘dalar sistemalari rang (yoki metallilik) taqsimoti bimodal ekani ko‘rsatilgan, ya‘ni, sharsimon to‘dalar sistemalari ikki guruhga bo‘lingan: qizil (disk) va havorang (galo) (D.A.Forbes, R.Chandar, B.Whitmore, M.G.Lee, J.R.Hargis, K.L.Rhode, S.Zepf, A.Kundu). Bizning Galaktikamiz, M31 va Haykaltarosh guruhidagi galaktikalarning sharsimon to‘dalar yorqinlik funksiyasi yaxshi o‘rganilgan (J.B.Nantais, J.P.Huchra, P.Barmby).

O‘zbekistonda O‘zMU professori f.-m.f.d. S.N.Nuritdinov rahbarligida shogirdlari tomonidan sharsimon to‘dalar va ular sistemalarining keng qamrovli muammolari borasida sistematik ravishda kuzatuvlar natijalari tahlil qilingan. Bu tadqiqotlar natijasida ushbu ob‘ektlarning ma‘lumotlar bazasi shakllantirilgan hamda galaktika tiplari bo‘yicha ma‘lumotlarning statistik tahlili orqali sharsimon to‘dalar sistemalari katalogi tuzilgan, elliptik va linzasimon galaktikalar uchun sharsimon to‘dalar sistemalari va ular galaktikasining alohida fizik xarakteristikalari orasidagi empirik bog‘lanishlar topilgan, 10 dan ortiq sharsimon to‘dalar sistemalari kuzatuv va nazariy sirtiy zichliklarini solishtirish usuli orqali tezliklar anizotropiyasi parametri qiymati aniqlangan. Shuningdek, Xabbl doimiysi qiymati topilgan. Ammo, barcha tipdagi galaktika atrofidagi sharsimon to‘dalar sistemalari uchun kuzatuv ma‘lumotlarini yig‘ish asosida ularning jamlanma katalogi tuzilmagan va kuzatuv ma‘lumotlarining statistik tahlili olib borilmagan, shuningdek, ular kelib chiqishini keyinchalik tushuntirib berishda muhim ma‘lumot hisoblangan galaktikalar va ularning sharsimon to‘dalar sistemalari parametrlari orasidagi empirik bog‘lanishlar aniqlanmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti universitetning ilmiy-tadqiqotlar rejalariida keltirilgan ilmiy mavzulari doirasida olib borilgan, shuningdek, FM-2-012 – “Galaktikalar atrofidagi noyob sharsimon to‘dalar tadqiqoti: ma‘lumotlar tahlili va kelib chiqish nazariyasini ishlab chiqish” (2007-2008 yy.), F2-54 – “Eynshteyn va Makloren nochiziqli modeli fonidagi gravitatsion noturg‘unlik: modal tadqiqot va kuzatuv ma‘lumotlari asosida katalog yaratish” (2011-2016 yy.) va OT-F3-13 – “Gravitatsion noturg‘unlik va rezonans sharoitini hisobga olgan holda o‘zgravitatsiyalanuvchi sistemalarning nochiziqli nostatsionar evolyusiyasidagi fazaviy qorishish” (2017-2019 yy.) ilmiy loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi sharsimon to‘dalar, ular sistemalari va galaktikalari alohida fizik parametrlari orasida empirik bog‘lanishlarni izlash, sharsimon to‘dalar va ular sistemalari uchun sinflashtirishni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari bizning Galaktikamiz sharsimon to‘dalari va sistemasi kuzatuv ma‘lumotlari tahlilini qilish, sharsimon to‘dalarni sinflashtirish va King modeli uchun yordamchi parametrni izlash, shuningdek, alohida fizik parametrlar bilan korrelyatsiyasi mavjud bo‘lgan yangi parametrni topish, sharsimon to‘dalar sinflashtirish muammosini yechish, sharsimon to‘dalar sistemalari jamlanma katalogini statistik tahlilini bajarish, sharsimon to‘dalar, sharsimon to‘dalar

sistemalari va ular galaktikasi alohida xarakteristikalari orasida empirik bog'lanishlarni topish hisoblanadi.

Tadqiqot ob'ekti bizning Galaktikamiz sharsimon to'dalari va uning sistemasi hamda turli morfologik tipdagi galaktikalar atrofidagi sharsimon to'dalar sistemalari hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti sharsimon to'dalar va ular sistemalari bo'yicha kuzatuv ma'lumotlari, asosiy fizik xarakteristikalar orasidagi empirik formulalar, sharsimon to'dalar asosiy fizik xarakteristikalari, sharsimon to'dalar va sharsimon to'dalar sistemalarini sinflashtirish hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida statistik bog'lanishlarni topish uchun kichik kvadratlar usuli, minimizatsiyalashning simpleks usuli va sharsimon to'dalar modeli parametrlari xatoligini aniqlash uchun χ^2 -usulidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sharsimon to'da markaziga nisbatan yulduzlar konsentratsiya darajasini ifodalovchi parametr va tezliklar anizotropiya parametri qiymatlari markaziy soha uchun Xabbl kosmik teleskopidan olingan kuzatuv ma'lumotlari asosida hisoblangan;

sharsimon to'dalarni sinflashtirish muammosi yechilgan va bizning Galaktikamiz sharsimon to'dalari klassifikatsiyasi ishlab chiqilgan. Konsentratsiya darajasi va sharsimon to'dalarning massasi, absolyut yulduz kattaligi, boylik darajasi va Galaktika markazidan uzoqligi orasida empirik formulalar topilgan;

441 ta sharsimon to'dalar sistemasidan iborat jamlanma katalog yaratilgan va turli xil mualliflar tomonidan aniqlangan usullar va kuzatuv ma'lumotlari uchun solishtirma tahlil bajarilgan;

spiral, noto'g'ri va karlik galaktikalar uchun sharsimon to'dalar sistemasi va ular galaktikalari asosiy xarakteristikalari orasida empirik bog'lanishlar aniqlangan;

sharsimon to'dalar sistemalari sinflashtirish muammolari tahlil qilingan. Sharsimon to'dalar sistemalari uchun sinflashtirish ishlab chiqilgan. Sharsimon to'dalar sistemalari fizik xarakteristikalari va virial parametr orasida empirik bog'lanishlar topilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

26 ta sharsimon to'dalar uchun to'da markaziga nisbatan yulduzlar konsentratsiya darajasini ifodalovchi parametr qiymatlari hisoblandi; 36 ta sharsimon to'dalar uchun tezliklar anizotropiya parametri qiymati aniqlandi. Sharsimon to'dalarda konsentratsiya darajasi va ularning boshqa fizik xarakteristikalari orasida statistik formulalar olindi va sharsimon to'dalar klassifikatsiyasi ishlab chiqildi;

sharsimon to'dalar sistemalari fizik xarakteristikalari qiyosiy tahlil qilindi. Sharsimon to'dalar sistemalari bo'yicha kuzatuv ma'lumotlari banki yig'ildi va shu asosida 441 ta sistemadan iborat jamlanma katalog yaratildi. Jamlanma katalogning statistik tahlili bajarildi, Sharsimon to'dalar sistemalari va ular galaktikalarining xarakteristikalari orasidagi empirik bog'lanishlar olindi. Xususan, galaktika absolyut yulduz kattaligining ortishi sharsimon to'dalar

sistemasining metallilik qiymati chiziqli ortishi ko'rsatildi. Turli morfologik tipdagi galaktikalar uchun galaktika absolyut kattaligi bilan sharsimon to'dalar umumiy soni orasida logarifmik bog'lanish topildi;

spiral, karlik va noto'g'ri tipdagi galaktikalar uchun sharsimon to'dalar sistemalari va ona galaktikalari fizik parametrlari orasida empirik bog'lanishlar topildi. Kuzatuv ma'lumotlari taxlili asosida 22,2 foiz sharsimon to'dalar sistemalari galaktikalar guruhlarida, 58,5 foizi esa to'dalarida kuzatilishi ko'rsatildi;

sharsimon to'dalar sistemalarini sinflashtirish masalasi tahlil qilindi, ular uchun sodda sinflashtirish ishlab chiqildi. Virial parametr va sharsimon to'dalar sistemalari asosiy xarakteristikalarini orasida korrelyatsiya koeffitsienti hisoblab topildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot ishida kuzatuv ma'lumotlari statistik taxlilining zamonaviy va yaxshi sinovdan o'tgan usullari, hisoblashning sonli usullari hamda matematik tahlil va matematik statistikaning yuqori aniqlikdaligi usullari qo'llanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, sharsimon to'dalar sistemalari jamlanma katalogi va uning statistik natijalari bunday sistemalarning paydo bo'lish muammolari va sharsimon to'dalar sistemalari va ular galaktikalarida sodir bo'layotgan evolyutsion jarayonlarini o'rganishda asos bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa quyidagilar bilan izohlanadi: ushbu tadqiqot natijalari keyinchalik yangi sharsimon to'dalar sistemasini topish va ular fizikasidagi muammolarni o'rganishda qo'llaniladi. sharsimon to'dalar sistemalari katalogi, olingan empirik bog'lanishlar hamda sharsimon to'dalar sistemalari kelib chiqish mezonlarining qo'llanilishi ularning fizik va dinamik evolyutsiyasini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalarini yangi sharsimon to'dalar sistemalarini topishda va ular fizikasi muammolarini o'rganishda qo'llash mumkin. Ishlab chiqilgan sharsimon to'dalar va ular sistemalari klassifikatsiyasi, jamlanma katalog, olingan empirik formulalar, ularning fizik va dinamik evolyutsiyasini tahlil qilishda qo'llash mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dissertatsiya natijalari quyidagilarga joriy qilingan:

hisoblab topilgan tezliklar anizotropiya parametri va sharsimon to'da markaziga nisbatan konsentratsiya darajasi qiymatlari tarqoq to'dalar uchun xuddi shunday kattaliklarini aniqlashda foydalanildi (O'zbekiston Milliy universitetining 2022 yil 16 iyundagi 04/11-3467 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, tarqoq to'dalar uchun anizotropiya parametri va konsentratsiya darajasi hisoblab topildi;

ishlab chiqilgan sharsimon to'dalar sinflashtirishi tarqoq to'dalarga nisbatan ham qo'llanildi (O'zbekiston Milliy universitetining 2022 yil 16 iyundagi 04/11-3467 sonli ma'lumotnomasi). Natijada tarqoq to'dalarni ham shunday sinflarga ajratish taklif etildi. Konsentratsiya darajasi bilan massa, absolyut kattalik, boylik indeksi, Galaktika markazigacha bo'lgan masofa orasida topilgan empirik

formulalar tarqoq to‘dalar uchun ham shunday formulalar mavjudligini tekshirish imkonini berdi;

sharsimon to‘dalar sistemalari katalogi turli tipdagi galaktikalarni o‘rganish imkonini berdi (O‘zbekiston Milliy universitetining 2022 yil 16 iyundagi 04/11-3467 sonli ma’lumotnomasi). Natijada, galaktikalarning strukturaviy hodisalari, shuningdek, spiral galaktikalarning sferik tashkil etuvchilari batafsil o‘rganildi;

spiral, karlik va noto‘g‘ri galaktikalar parametrlari va ularning sharsimon to‘dalar sistemalari xarakteristikalarini orasida topilgan empirik formulalardan disksimon galaktikalarning xuddi shunday kattaliklarini aniqlashda foydalanildi (O‘zbekiston Milliy universitetining 2022 yil 16 iyundagi 04/11-3467 sonli ma’lumotnomasi). Masalan, galaktika absolyut kattaligi va metallilik yoki sharsimon to‘dalar soni orasida topilgan bog‘lanish disksimon galaktikalarning absolyut kattaligini aniqlashda yordam berdi;

sharsimon to‘dalar sistemalari sinflashtirishidan spiral galaktikalardagi nohiziqli jarayonlarni o‘rganishda foydalanildi (O‘zbekiston Milliy universitetining 2022 yil 16 iyundagi 04/11-3467 sonli ma’lumotnomasi). Natijada, sharsimon to‘dalar sistemalarining sinfiga qarab galaktikalarni ham mos bo‘lgan guruhlariga ajratish mumkinligi aniqlandi. Mos sistemaning virial parametri qiymatini aniqlagan holdi empirik bog‘lanish orqali galaktikaning evolyutsion bosqichlari muammolarini o‘rganish mumkin. Shuningdek, dissertatsiya natijalari O‘zbekiston Milliy Universiteti bakalavriat talabalariga o‘qilayotgan “Galaktik astronomiya”, “Kosmogoniya muammolari” va magistraturadagi “Yulduz to‘dalari fizikasi” kabi maxsus kurslariga kiritilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 16 ta xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 44 ta ilmiy ish nashr qilingan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 21 ta maqola, shulardan, 7 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, beshta bob, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 179 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob’ekti va predmeti tavsiflangan, O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr qilingan ishlar, dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Birinchi bob **“Bizning Galaktikamiz sharsimon to‘dalari kuzatuv ma’lumotlari haqida”** deb nomlanib, unda Galaktikamizdagi sharsimon to‘dalarni kuzatuvdan olingan natijalarining qiyosiy taxlili keltirilgan. Sharsimon to‘dalar fizikasida mavjud muammolar qaralgan. Galaktikamiz sharsimon to‘dalar sistemasi joylashuvi va asosiy fizik parametrlariga ko‘ra ikki guruhga bo‘linishi ko‘rsatilgan. Sharsimon to‘dalar sistemasi orqali Quyoshning Galaktikadagi o‘rni, aniqrog‘i Quyoshdan Galaktika markazigacha bo‘lgan masofa ikki xil usul orqali aniqlangan (X-sentroid koordinatlari va nofazaviy usul). Sentroid usulida sharsimon to‘dalarning X-koordinatalari bo‘yicha Galaktika markazigacha masofa baholangan. Agar Galaktikadagi barcha 157 sharsimon to‘dalarni olsak, u holda Quyoshdan Galaktika markazigacha bo‘lgan masofa $R_0 = \bar{X} = 6,01$ kpk ga teng bo‘ladi (standart xatolik 1,01 kps). Agar Z-koordinata bo‘yicha chegaralagan holda, ya‘ni sharsimon to‘dalar $|Z| > 2.5$ kps masofada joylashganlarini istisno qilsak, bu holda 92 ta sharsimon to‘dalar uchun X-koordinatlari ma‘lum bo‘ladi va $R_0 = \bar{X} = 7,03$ kpk ga teng bo‘ladi (standart xatolik 0,29 kps). Shuningdek, Quyoshning Galaktikadagi o‘rnini aniqlashda nofazaviy usuldan ham foydalanilgan. Bu usuldan foydalanib, Galaktika markazidan Quyoshgacha bo‘lgan masofa qiymati $R_0 = 6,46$ kpk ga tengligi aniqlandi. Olingan natijalar turli yillarda har xil usullarda boshqa mualliflar tomonidan topilgan natijalar bilan taqqoslandi hamda aniqlangan qiymat xatoliklar doirasida mos tushishi ko‘rsatildi.

“Bizning Galaktika sharsimon to‘dalari sinflashtirish muammolari” deb nomlanuvchi ikkinchi bobda sharsimon to‘dalarni sinflashtirishning muammolari bo‘yicha tahlil natijalari keltirilgan. Sharsimon to‘dalarning tezliklar anizotropiya parametri va to‘da markaziga nisbatan yulduzlar konsentratsiyasi darajasi bo‘yicha sinflashtirilishi ishlab chiqildi. Kuzatuv ma’lumotlari bo‘yicha 36 ta sharsimon to‘da uchun tezlik anizotropiyasi parametri hisoblab topildi va sharsimon to‘dalarlar tezlik anizotropiyasi parametri bo‘yicha uchta guruhga ajratildi.

Guruhlar	A bo‘yicha interval	Sharsimon to‘dalar soni
I	$0.0 \leq A < 0.5$	16
II	$0.5 \leq A < 1.0$	9
III	$1.5 \leq A < 2.0$	11

1-jadvalda sharsimon to‘dalar ushbu guruhlarining bir qator xarakteristikalarini o‘rtacha qiymatlari berilgan: guruh a‘zolarining Galaktika markazigacha bo‘lgan masofasining o‘rtachasi $\langle R \rangle$, metalliligi $\langle [Fe/H] \rangle$, yoshi $\langle t \rangle$, sharsimon to‘dalarning o‘lchami $\langle D_g \rangle$ va boylik indeksi $\langle IR \rangle$.

1-jadval. Sharsimon to‘daning uch guruhining asosiy xarakteristikalarini o‘rtacha qiymatlari

Guruh	$\langle R \rangle$ [kpk]	$\langle [Fe/H] \rangle$	$\langle t \rangle$	$\langle D_g \rangle$ [pk]	$\langle IR \rangle$
I	10.21	-1.41	10.18	7.10	0.55
II	21.39	-1.57	10.16	6.35	0.66
III	54.23	-1.59	10.13	7.41	0.41

Sharsimon to‘dalarning I guruhi II guruhiga qaraganda Galaktika markaziga o‘rtacha ikki marta yaqinroq joylashgan, III guruhi esa Galaktikaning tashqi

qismida joylashgan. To‘dalar metalliligi va yoshi o‘rtacha qiymati masofa ortishi bilan kamayishi aniqlandi. I va III guruh to‘dalarining o‘rtacha o‘lchami II guruh a‘zolaridan kattaroq. Qizig‘i shundaki, II guruhdagi boylik darajasi qolgan ikki guruhlardan ko‘ra ko‘proq ekanligi ko‘rsatildi.

Sharsimon to‘dalar qo‘shimcha parametrlarini aniqlash maqsadida to‘da markaziga nisbatan yulduzlar konsentratsiyasi kuzatuv ma‘lumotlari bilan bog‘liq bo‘lgan konsentratsiya parametri γ ni kiritish taklif etildi. Sirtiy zichlik taqsimot funksiyasi $\sigma(r)$ ni ifodalovchi quyidagi formula orqali aniqlanuvchi model tanlab olindi:

$$\sigma(r, \gamma, r^*, \sigma_0) = \sigma_0 \left[1 + \left(\frac{r}{r^*} \right)^2 \right]^{-\gamma}, \quad (1)$$

bu yerda σ_0 , r^* , γ erkin parametrlar, ya‘ni γ – to‘da markaziga nisbatan yulduzlar konsentratsiya darajasi bilan bog‘liq parametr, r^* - sharsimon to‘da yadrosining radiusi r_c bilan bog‘liq kattalik va σ_0 – markazdagi ko‘rinma zichlik. [1] maqolada keltirilgan ma‘lumotlardan foydalangan holda γ parametrning qiymatlari 26 ta sharsimon to‘da uchun aniqlandi. Buning uchun biz minimumlashtirishning ikkita usulidan foydalandik: simpleks va χ^2 . Natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval. Sharsimon to‘da modeli parametrlari va konsentratsiya darajasini hisoblash natijalari

N_2	Sharsimon to‘da nomi	γ	$\Delta \gamma$	r^*	Δr^*	σ_0	$\Delta \sigma_0$
1	NGC 104	0.73	0.24	18.68	8.52	7.69	0.96
2	NGC 288	1.38	0.96	93.75	63.18	0.17	0.16
3	AM 1	1.72	1.19	14.63	9.71	0.47	0.45
4	Eridanus	1.51	0.60	19.87	7.86	0.86	0.15
5	NGC 1851	0.99	0.36	4.78	2.05	5.62	1.17
6	NGC 1904	0.91	0.27	7.42	3.32	5.70	1.34
7	NGC 2419	1.18	0.33	20.06	6.39	3.60	0.43
8	Palomar 3	2.11	0.91	48.45	18.21	0.04	0.01
9	Palomar 4	2.16	1.01	39.31	15.01	0.04	0.01
10	NGC 5024	1.00	0.24	22.08	7.41	2.96	0.40
11	NGC 5272	0.81	0.23	17.21	7.72	3.10	0.51
12	NGC 5466	1.48	0.60	102.88	38.95	0.10	0.01
13	NGC 5824	0.73	0.17	2.71	1.12	7.56	1.34
14	NGC 5904	0.68	0.14	14.64	5.31	4.07	0.53
15	Palomar 14	0.99	0.47	38.37	21.65	0.25	0.06
16	NGC 6121	0.81	0.35	47.43	30.39	0.26	0.09
17	NGC 6205	1.05	0.32	48.22	15.18	3.58	0.31
18	NGC 6229	1.02	0.34	8.27	3.28	5.26	0.78
19	NGC 6254	1.02	0.28	38.33	14.38	0.50	0.08
20	NGC 6266	0.86	0.21	12.44	4.17	10.40	1.21
21	NGC 6341	1.03	0.46	14.54	8.28	2.54	0.81
22	Terzan 5	1.31	0.45	10.28	3.87	7.17	1.06
23	NGC 6626	0.71	0.18	6.85	3.18	2.36	0.58
24	NGC 6809	0.85	0.35	69.07	40.75	0.20	0.06
25	NGC 6864	1.18	0.46	5.71	2.50	16.82	3.01
26	NGC 7089	0.89	0.29	12.43	5.80	3.13	0.71

Ko‘rinib turibdiki, konsentratsiya darajasi qiymatlari (0.65; 2.15) intervalda yotadi. Konsentratsiya parametri bo‘yicha sharsimon to‘dalarni 4 ta sinfga ajratish mumkin.

Sinflar	Nomi	γ bo‘yicha interval
a	Eng zich	$\gamma \leq 0.90$
b	O‘rtacha zich	(0.90; 1.15]
c	O‘rtacha siyrak	(1.15; 1.40]
d	Siyrak	$\gamma > 1.40$

Shunday qilib, sharsimon to‘dalarni Shepli-Soyer kabi 12 ta sinfga emas, balki 4 ta sinfga ajratgan ma‘qul. Konsentratsiya darajasi bo‘yicha intervalni ixtiyoriy paytda yanayam aniqlashtirish mumkin. Sharsimon to‘dalarni sinflashtirish nuqtai nazaridan konsentratsiya darajasining boshqa fizik xarakteristikalar bilan korrelyatsiyasini aniqlash muhim hisoblanadi.

Sharsimon to‘dalar asosiy xarakteristikalarini bilan konsentratsiya darajasi γ ning turli xil bog‘lanishlari ko‘rib chiqildi. Hisoblangan korrelyatsiya koeffitsienti qiymatidan ma‘lum bo‘ldiki, konsentratsiya darajasi sharsimon to‘dalarning ayrim xarakteristikalarini bilan chiziqli bog‘langan. Masalan, konsentratsiya darajasi γ sharsimon to‘da massasiga chiziqli ravishda bog‘liq (korrelyatsii koeffitsient -0.68 teng):

$$\gamma = -0.46(\pm 0.10) \lg \frac{M}{M_{\odot}} + 3.65(\pm 0.56). \quad (2)$$

Sharsimon to‘dalar massasi qanchalik katta bo‘lsa, konsentratsiya darajasi γ shunchalik kichik, ya‘ni sharsimon to‘da shunchalik zichroq. Shuningdek, konsentratsiya darajasi va Galaktika markazigacha bo‘lgan masofa orasida ham chiziqli bog‘lanish borligi (korrelyatsiya -0.76 ga teng) aniqlandi:

$$\gamma = 0.087(\pm 0.007)R_G + 0.008(\pm 0.001). \quad (3)$$

Ko‘rinib turibdiki, Galaktika markazidan uzoqlashgan sari γ ning qiymati o‘sib boradi, ya‘ni sharsimon to‘da konsentratsiyasi asta sekin kamayib boradi.

γ va sharsimon to‘da absolyut yulduz kattaligi orasidagi korrelyatsiya koeffitsienti 0.76 ga teng, unga mos holdagi empirik formula quyidagicha:

$$\gamma = 0.19(\pm 0.03)M_V + 2.50(\pm 0.25). \quad (4)$$

To‘da markaziga nisbatan konsentratsiya qanchalik katta bo‘lsa, sharsimon to‘da shunchalik yorqin bo‘ladi. Bu hodisa hisoblash natijalarga ko‘ra konsentratsiya darajasi o‘sgan sari sistemaning xarakterli o‘lchami o‘rta hisobda kichiklashishi bilan bog‘liq.

Konsentratsiya darajasi γ va King parametri “c” orasidagi korrelyatsiya koeffitsienti -0.63 va u quyidagicha chiziqli bog‘lanishga ega:

$$\gamma = -0.69(\pm 0.17)c + 2.13(\pm 0.26). \quad (5)$$

Shuningdek, konsentratsiya darajasi γ boylik indeksiga ham chiziqli bog‘liq (korrelyatsiya koeffitsienti -0.74 teng) va ular orasidagi bog‘lanish quyidagicha:

$$\gamma = -1.38(\pm 0.28)IR + 1.86(\pm 0.17). \quad (6)$$

Qayd etish kerakki, konsentratsiya darajasi γ sharsimon to‘da yoshiga juda ham kuchsiz bog‘langan. Bu holdagi korrelyatsiya koeffitsienti -0.43 ga teng.

Hisoblashlar ko'rsatdiki, to'daning yoshi qanchalik katta bo'lsa u shunchalik zichroq bo'ladi.

Gaia dasturi [2] doirasida olingan sharsimon to'dalar kuzatuv ma'lumotlari Xabbl teleskopida [1] olingan kuzatuv ma'lumotlaridan yomon ekanligini alohida ta'kidlab o'tamiz.

Dissertatsiyaning "**Galaktikalar sharsimon to'dalar sistemalari va ularning jamlanma katalogi**" deb nomlangan uchinchi bobida sharsimon to'dalar sistemalari kuzatuvlariga oid tadqiqot ishlari natijalari tahlil qilingan. Sharsimon to'dalar sistemalari fizikasida mavjud bo'lgan muammolar qaralgan va sharsimon to'dalar sistemalari bo'yicha kuzatuvlar ma'lumotlarining tahlili asosida 441 ob'ektni o'z ichiga olgan jamlanma katalog tuzilgan. Tuzilgan jamlanma katalogning umumiy statistik tahlili natijalari keltirilgan.

Katalogda sharsimon to'dalar sistemalariga ega bo'lgan spiral galaktikalarga nisbatan elliptik galaktikalarning umumiy soni taxminan $N_{ellip}/N_{spiral}=3,82$ ga teng. Protsent ko'rsatkichi nuqtai nazaridan galaktikalarning o'zaro nisbati jamlanma katalogda quyidagicha:

$$E : (S0 + SB0) : (S + SB) : Ir = 54 : 26 : 14 : 6, \quad (7)$$

bunda elliptik galaktikalar soni boshqa tipdagi galaktikalarga qaraganda 1.16 nisbatda ko'pdir. Elliptik galaktikalar bosiqqligi ortgan sari ularning soni kamayadi.

3-jadvalda sharsimon to'dalar sistemalari jamlanma katalogida mavjud bo'lgan galaktikalar tiplari bo'yicha boshqa tadqiqotlar bilan qiyosiy tahlil qilingan.

3-jadval. Sharsimon to'dalar sistemalariga ega bo'lgan kataloglarning qiyosiy tahlili

	Soni	E, %	S0+SB0, %	S+SB, %	Ir, %
[3] maqolada	60	57	15	23	5
[4] maqolada	82	69	11	17	3
[5] maqolada	136	54	31	12	3
[6] maqodala	422	58	23	13	6
Mazkur ishda	441	54	26	14	6

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, har bir ishda sharsimon to'dalar sistemalariga ega bo'lgan elliptik galaktika boshqa tipdagi galaktikalarga qaraganda ancha ko'p qismini tashkil etadi. Biroq, elliptik galaktikalarni bosiqqligi bo'yicha E_n ko'rinishida alohida ajratsak, unda S0 tipdagi galaktikalar asosiy o'rinni egallaydi, undan keyin E0, E1, E3, E4, SB0 va boshqalar.


Sharsimon to'dalar sistemalari jamlanma katalogida 238 ta ob'ekt elliptik galaktikalar, 117 tasi linzasimon, 61 tasi spiral va 23 tasi esa noto'g'ri galaktikalarga to'g'ri keladi. Aytish joizki, spiral va noto'g'ri galaktikalar atrofidigi sharsimon to'dalar sistemalari elliptik va linzasimon galaktikalar sharsimon to'dalar sistemalariga qaraganda miqdor (to'dalari soni) jihatdan ancha kambag'aldir.

Kuzatuv ma'lumotlari tahlili asosida 22,2 foiz sharsimon to'dalar sistemalari galaktikalar guruhlarida va 58,5 foizi esa – galaktikalar to'dalarida kuzatilishi ham aniqlandi. Bu borada sharsimon to'dalar sistemasiga ega bo'lgan


galaktikalar to‘dolari orasida birinchi o‘rinni Parizod to‘dasi (≈ 55 foiz), keyin Pech (≈ 21 foiz) va Veronika Sochlari (≈ 8 foiz) to‘dasi egallaydi.

“Sharsimon to‘dalar sistemalari uchun empirik bog‘lanishlarni topish” deb nomlangan to‘rtinchi bob sharsimon to‘dalar sistemalari jamlanma katalogining statistik tahlili, sharsimon to‘dalar sistemalari va ular galaktikalari xarakteristikalari orasidagi empirik bog‘lanishlarni izlash kabi masalalarga bag‘ishlangan.

Sharsimon to‘dalar sistemalari fizikasi nuqtai nazaridan ularning metalliligi va ular galaktikalari absolyut yulduz kattaligi orasidagi bog‘lanishni aniqlash muhim sanaladi. 1-rasmda elliptik va linzasimon galaktikalar uchun shunday bog‘lanish berilgan.



1-rasm. Sharsimon to‘dalar sistemasi metalliligining ular galaktikasi absolyut yulduz kattaligiga bog‘liqligi (ochiq doira – S0 galaktikalar, qora doiralar – E-galaktikalar)



2-rasm. Sharsimon to‘dalar sistemasidagi to‘dalar sonining ular galaktikasi absolyut yulduz kattaligiga statistik bog‘liqligi (E-galaktikalar uchun)

Galaktikalarning alohida tiplari borasidagi kuzatuv ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, sharsimon to‘dalar sistemalari metalliligi ular galaktikalari absolyut yulduz kattaligiga chiziqli ravishda bog‘liq:

$$[Fe / H] = -2.91(\pm 0.42) - 0.09(\pm 0.02)M_V \text{ (E tip uchun),} \quad (8)$$

$$[Fe / H] = -4.22(\pm 0.79) - 0.16(\pm 0.04)M_V \text{ (S0 tip uchun).} \quad (9)$$

Topilgan (8) va (9) bog‘lanishlar galaktika qanchalik yorqin yoki absolyut yulduz kattaligi moduli katta bo‘lsa, sistema metalliligi o‘rta hisobda shunchalik ortib borishini bildiradi. Bu munosabatlarda koeffitsientlar xatoligi yetarlicha kichikdir.

2-rasmda elliptik galaktikalar sistemasidagi sharsimon to‘dalar soni N_{GC} bilan galaktika absolyut yulduz kattaligi orasidagi bog‘lanish ko‘rsatilgan. Elliptik va linzasimon tipdagi galaktikalar uchun alohida o‘rganishlar natijasida ushbu parametrlar o‘rtasidagi logarifmik bog‘liqlik aniqlandi. Aniqrog‘i, elliptik galaktikalar uchun

$$\lg N_{GC} = -4.48(\pm 0.22) - 0.35(\pm 0.01)M_V, \quad (10)$$

linzasimon galaktikalar uchun esa –

$$\lg N_{GC} = -6.27(\pm 0.50) - 0.42(\pm 0.03)M_V. \quad (11)$$

Keyinchalik, elliptik galaktikalar sharsimon toʻdalar sistemalari soni bilan ularning bosqlik darajasi orasidagi statistik bogʻlanish tahlil qilindi. Bu holda quyidagicha empirik bogʻlanish borligi aniqlandi:

$$N = 39.04 (\pm 4.03) - 3.95 (\pm 0.80) n . \quad (12)$$

Koʻrinib turibdiki, elliptik galaktikalar bosqlik darajasi ortishi bilan ularning soni chiziqli ravishda kamayib boradi.

Tahlillardan aniqlandiki, elliptik galaktikalar bosqlik darajasi ortishi bilan sharsimon toʻdalar sistemasidagi toʻdalarning logarifmik soni kamayib boradi:

$$\lg < N_{GC} > = 3.83 (\pm 0.14) - 0.23 (\pm 0.03) n . \quad (13)$$

Qiziqarlisi shundaki, yuqorida aniqlangan bogʻlanishlar (8)-(13) ning oʻng tomoni kvadratik bogʻlanishdan koʻra chiziqli koʻrinishda yaxshiroq approksimatsiyalanishi aniqlandi. Yana shuni aytish kerakki, 136 ta obʻektdan iborat katalogda [5] elliptik va linzasimon galaktikalar sharsimon toʻdalar sistemalari uchun ular fizik parametrlari orasidagi empirik bogʻlanishlar aniqlangan.

Shuningdek, normal spiral galaktikalar uchun ham statistik tahlil qilinganda, spiral tarmoqlarning yadroga oʻralganlik darajasi oʻsishi bilan ulardagi Sharsimon toʻdalar soni oʻrta hisobda ortib borishi aniqlandi:

$$\lg < N_{GC} > = 2.95 (\pm 0.25) - 0.24 (\pm 0.06) T_n , \quad (14)$$

bu yerda T_n – normal spiral galaktika tipining kodini bildiradi.

Maʼlumki, galaktika absolyut yulduz kattaligi sharsimon toʻdalar soni bilan korrelyatsiyalanadi. Spiral galaktikalar uchun ham shunday empirik bogʻlanish borligi aniqlandi:

$$\lg N_{GC} = -3.43 (\pm 0.46) - 0.27 (\pm 0.02) M_V . \quad (15)$$

(15) formulaning elliptik va linzasimon galaktikalar uchun topilgan empirik bogʻlanish formulalari bilan qiyosiy tahlili shuni koʻrsatdiki, aniqlagan koeffitsentlarda yetarlicha farqlar mavjud. Boshqa tomondan, absolyut kattalikning galaktika tipi bilan bogʻliqligini hamma tipdagi galaktikalar uchun koʻrish muhimdir. Unday holda biz quyidagini aniqlaymiz:

$$M_V = -22.00 (\pm 0.50) + 0.50 (\pm 0.09) T . \quad (16)$$

Bunday bogʻlanish normal va barsimon spiral galaktikalar uchun ham alohida aniqlandi:

$$M_V = -22.57 (\pm 0.62) + 0.61 (\pm 0.13) T , \quad (\text{S-uchun}) \quad (17)$$

$$M_V = -20.84 (\pm 0.89) + 0.35 (\pm 0.14) T , \quad (\text{SB-uchun}) \quad (18)$$

Bugungi kunda faqatgina bir necha spiral galaktikalar sharsimon toʻdalar sistemalari uchun metallilik [Fe/H] qiymati maʼlum, xolos. Shunday boʻlsada, biz keyingi olib borilishi mumkin boʻlgan tadqiqot ishlari uchun ushbu kattaliklar orasidagi bogʻlanishni aniqladik:

$$[Fe/H] \approx -8.84 (\pm 2.43) - 0.36 (\pm 0.11) M_V , \quad (19)$$

lekin bu hali qoʻshimcha tadqiqotlarni talab etadi. Ushbu bogʻlanishni elliptik galaktikalar uchun taqqoslaganda, metallilik [Fe/H] qonuniyati M_V bilan deyarli bir xil ekanligi aytish kerak.

Agar sharsimon to‘dalar sistemalari jamlanma katalogidagi ma’lumotlardan, sharsimon to‘dalar sistemalari N_S soni bilan karlik galaktikalar tipi (aniqrog‘i, ular bosiqliqi n_e) orasida chiziqli qonuniyat borligini ko‘rish mumkin:

$$N_S = 15.21(\pm 2.97) - 1.38(\pm 0.59)n_e. \quad (20)$$

Shunday qilib, karlik galaktikalar sharsimon to‘dalar sistemalari soni o‘rta hisobda bosiqlik ortgan sari kamayadi. Qizig‘i shundaki, normal elliptik galaktikalardan farqli ravishda, karlik elliptik galaktikalarning $n_e = 7$ tipida sharsimon to‘dalar sistemalari kuzatiladi.

Galaktika absolyut yulduz kattaligi bilan sistemadagi sharsimon to‘dalar soni orasida bog‘lanish mavjudligi aniqlandi:

$$\lg N_{GC} = -2.79(\pm 0.34) - 0.24(\pm 0.02)M_V. \quad (21)$$

Karlik galaktikalar absolyut yulduz kattaligi va sharsimon to‘dalar sistemalari metalliligi orasida korrelyatsiyani aniqlash uchun kuzatuv ma’lumotlari juda kam. Lekin, shunga qaramasdan, biz ushbu bog‘lanishni aniqlashga harakat qildik:

$$[Fe/H] \approx -3.93(\pm 0.25) - 0.15(\pm 0.01)M_V. \quad (22)$$

Agar karlik galaktikalar sharsimon to‘dalar sistemalari normal elliptik galaktikalarniki bilan birgalikda qarash, unda topilgan empirik bog‘lanishlar quyidagicha bo‘ladi:

$$N_S = 39.04(\pm 4.03) - 3.95(\pm 0.80)n_e. \quad (23)$$

Yuqoridagi tahlillardan shuni xulosa qilish mumkinki, karlik galaktikalar sharsimon to‘dalar sistemalari fizikaviy xususiyatlari jihatdan normal elliptik galaktikalarnikidan tubdan farq qiladi.

4-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, noto‘g‘ri galaktikalarda to‘dalar soniga ko‘ra Sm-tipdagi galaktikalar yetakchilik qiladi, biroq u boshqalariga nisbatan yaqinroq joylashgan. Bundan tashqari, karlik noto‘g‘ri galaktikalarda to‘dalar kam, ular galaktikalari absolyut yulduz kattaligi bo‘yicha ham xiradir.

4-jadval. Sharsimon to‘dalar sistemalari fizik xarakteristikalari o‘rtacha qiymatlari

Tiplar	Soni	O‘rtacha qiymatlar				
		N_{GC}	D, Mps	S_N	$(m - M)$	M_V
Sm	5	11	2.053	3.10	22.84	-16.92
Im	13	7	5.382	4.79	27.98	-15.24
dIr	5	5	9.574	3.29	29.47	-15.18

Noto‘g‘ri galaktikalar uchun galaktika absolyut yulduz kattaligi ortishi bilan sistemasidagi to‘dalar soni ortishini ko‘rsatish mumkin:

$$\lg N_{GC} = -2.365(\pm 0.706) - 0.195(\pm 0.045)M_V. \quad (24)$$

Statistikaga ko‘ra, boshqa galaktikalardagi sharsimon to‘dalar sistemalari galaktika massasi qancha katta bo‘lsa sharsimon to‘dalar sistemalari massasi ham shuncha katta bo‘lishi ma’lum. Shuni inobatga olgan holda, sistemadagi to‘dalar sonining galaktika massasiga bog‘lanishini topilgan:

$$\lg N_{GC} = -4.607(\pm 0.102) + 0.902(\pm 0.018)\lg M. \quad (25)$$

Shunday qilib, ilk bor spiral, karlik va noto'g'ri galaktikalar sharsimon to'dalar sistemalari kuzatuv ma'lumotlari tahlili bajarildi.

“Sharsimon to'dalar sistemalari sinflashtirishining nazariy jihatlari” deb nomlangan beshinchi bobda sharsimon to'dalar sistemalari sinflashtirish muammolari ko'rib chiqilgan. Hozirgacha hech kim sharsimon to'dalar sistemalarini amalda qo'llash uchun eng oddiy sinflashtirishni ishlab chiqishga harakat ham qilmagan. Ular bo'yicha to'plangan kuzatuv ma'lumotlari va ushbu ob'ektlar fizikasini chuqur o'rganish nafaqat ularning statistik xususiyatlarini tahlil qilishni, balki ularni oddiy sinflashtirishni ham tahlil qilishni talab qiladi. Sharsimon to'dalar sistemalarini sinflarga ajratish muammolarini o'rganish ularning paydo bo'lishi hamda evolyutsiyasi nazariyasini tuzish uchun ham foydalidir. Xabla kamertoni galaktikalarining barcha tiplari galaktikalar tipidan qat'iy nazar yoki alohida har bir galaktika tipi bo'yicha sharsimon to'dalar sistemalarini sinflashtirish ham har xil bo'lishi mumkin.

Shuningdek, sharsimon to'dalar sistemalarini sinflashtirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan solishtirma chastotasi muammosi ham o'rganilib, u o'z galaktikasining absolyut kattaligiga kvadratik shakldagi bog'liqligi aniqlandi.

